



ENDOKRIN BEZLAR, ULARNING LOTINCHA NOMLANISHI VA FAOLIYATI TO'G'RISIDA AYRIM MULOHAZALAR

Sharipov Bobur Salimovich

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Tillar kafedrasasi assistenti

E-mail: sharipovbobur9689@gmail.com

ORCID: <https://orcid.org/0009-0005-9787-8753>

Anorboyeva Savinch Sadridinovna

Samarqand davlat tibbiyot universiteti Davolash-2

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11402251>

ARTICLE INFO

Received: 27th April 2024

Accepted: 28th May 2024

Published: 31st May 2024

KEYWORDS

endokrin bezlar, sekretiya, tiroksin, kolloid modda, folikula, tinizm, miksidedma, treotaksikoz, endemik buqoq.

ABSTRACT

Ushbu maqolada endokrin bezlar faoliyati to'g'risida fikr 'gan. Unda endokrin bezlarining lotincha nomlanishi, yati, inson organizmidagi tutgan o'rni va vazifalari borasida ar asosida ma'lumotlar berilgan.

Kirish. Inson organizmida o'zidan sekret ishlab chiqaruvchi bezlar mavjud bo'lib ular Sekretiya bezlari deb ataladi. Ushbu bezlar ishlab chiqaradigan sekretlarini qayerda ajratib chiqishiga ko'ra uch guruhga bo'linadi:

Tashqi sekretiya bezlari: Ishlab chiqargan sekretlari maxsus yo'llar orqali teri sirtiga va ichak bo'shlig'iga chiqariladi.

Ichki sekretiya bezlari: Ularning maxsus sekret yo'li bo'lmasdan to'g'ridan to'g'ri qonga quyiladi.

Aralash sekretiya bezlari: Ular faoliyati davrida ham ichki ham tashqi sekretorlik funksiyasini bajaradi.

Asosiy qism. Endokrin bezlar ishlab chiqaruvchi moddalar - garmonlar deb ataladi. Garmonlar biologik faol moddalar bo'lib inson hayoti uchun juda zarur. Ularning miqdori normadan oshishi yoki kamayishi ham inson hayoti uchun xavfli bo'lib turli kasalliklarga olib keladi. Garmonlar organizmda turli moddalar almashinuvini idora etib turadi ularning miqdorini o'zgarishi moddalarning boshqarilishini buzilishiga olib keladi.

Qalqonsimon bez (*glandula thyroidea*) endokrin bezlar qatoriga kirib ko'ndalang o'lchami katta yoshdagi odamlarda 50-60 mm balandligi esa 50 mm atrofida. Bezning og'irligi 30-50g bo'lib bo'yinning oldingi sohasida hiqildoqning qalqonsimon tog'ayi bilan kekirdakning yuqori III-IV tog'ay halqalari oldida joylashadi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarda qalqonsimon bez tuzilishi yakunlanmagan bo'ladi. Uning taqasimon va yarim oysimon shakllari ko'proq uchraydi. Bola hayotining dastlabki yillarida bez parenximasi takomillashsa ham o'smaydi.

Keyinchalik balog'atgacha asta-sekin o'sib 10-14g balog'atga yetgan davrda o'sish jadallashib 25g ga yetadi, 20 yoshdan keyin esa uning og'irligi 35g bo'ladi. Qalqonsimon bez organizmdagi moddalar almashinuvini normallashtiradi. U ishlab chiqaradigan garmon

tiroksin deb atalib qon tarkibida yod miqdorini me'yorlashtirib turish vazifasini bajaradi. Tiroksin garmonining me'yorida oshishi ham kamayishi ham turli xil patologik holatlarga olib keladi.

Bez ikki bo'lakdan iborat: o'ng va chap bo'laklar (*lobus dexter et lobus sinister*) dan iborat. Ular o'zaro tor qalqonsimon bezning bo'g'zi (*isthmus glandulae thyriodeae*) vositasida qoshilib turadi. 30% holatda bez bo'g'zidan yuqoriga tomon piramidasimon bo'lak (*lobus pyramidalis*) joylashgan bo'ladi.

Bezning og'irligi ayollarda erkaklarga nisbatan katta bo'lib u tashqi tomondan hiqildoq va kekirdakka birikkan fibroz g'ilof (*capsula fibrosa*) bilan o'ralgan. Undan bez ichiga trabekulalar kirib, bezni bo'lakchalarga (*lobuli*) ajratadi. Bez bo'lakchalarining parenximasi (*parenchyma*) qalqonsimon bezning tuzulish birligi-follikulalardan iborat. Uning devori bir qavat epiteliydan tuzulgan, o'lchami 25 dan 300-500 mkm gacha yetadi.

Follikula bo'shlig'ida epiteliy hujayralari ishlab chiqaruvchi oqsilga boy kolloid modda bo'lib uning tarkibida ko'p miqdorda yod bo'ladi. Undagi yod miqdori qon plazmasidagi yod miqdoridan 300 marta ko'pligi aniqlangan.

Patalogiyasi. Qalqonsimon bez faoliyati pasayib tiroksin garmoni kam ishlab chiqarilganda kichik yoshli bolalarda kretinizm kasalligi kelib chiqadi. Kasallangan bolaning bo'yi sekin o'sib, jinsiy rivojlanishdan orqada qoladi, aqlan zaif bo'lib qoladi. Katta yoshdagi odamlarda esa bez faoliyati pasayishi miksidema kasalligiga olib keladi. Bunda bemor kishining qovoqlari shishib kam harakat bo'lib qoladi. Nerv qo'zg'aluvchanligi ham pasayib ketadi. Bez funksiyasi oshib ketganda esa treotaksikozga olib keladi. Ushbu kasallik ko'p hollarda balog'at yoshidagi kishilarda uchrab moddalar almashinuvi va nerv qo'zg'aluvchanligini oshirib yuboradi. Kishi uyquchan, ko'p terlaydigan, tez asabiylashadigan bo'lib qoladi.

Ayrim hududlarda suv tarkibida yod miqdorining kam bo'lishi natijasida aholi endemik buqoq kasalligidan aziyat chekishadi. Bunday holatda bez kattalashib moddalar almashinuvi jarayoni buzuladi. Kasallikni davolash uchun bezning bir qismi olib tashlanadi. Oldini olish uchun esa iste'mol qilinadigan tuz yodlanadi. Bez funksiyasi oshishi bilan bog'liq yana bir kasallik bo'lib *bazedov* deb ataladi. Kasallangan kishi ozib ketadi, ko'zlari noodatiy chaqchaygan holatda bo'ladi moddalar almashinuvi va nerv qo'zg'aluvchanligi oshib ketadi.

Xulosa. Endokrin bezlar inson hayotida juda katta ahamiyatga ega va ular faoliyatining gipofunksiyasi ham giperfunksiyasi ham hayot uchun xavfli hisoblanadi. Barcha endokrin bezlar qatori qalqonsimon bez ham organizm uchun muhim sekretiya bezi bo'lib organizmda muhim hayotiy jarayonlarni amalga oshiradi. Inson salomatligi saqlash uchun barcha choralar qatori sekret ajratish faoliyatiga ham alohida e'tibor qaratilishi shart.